

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TARIX INSTITUTI

QAZBEK BOZORBOY ULI NAG‘ASHBOYEV

**SOVET HOKIMIYATINING TURKISTON ASSR – O‘ZBEKISTON SSRda
JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI SIYOSATI (1917-1945-y.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent, 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Qazbek Bozorboy uli Nag‘ashboyev

Sovet hokimiyatining Turkiston ASSR – O‘zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi siyosati (1917–1945-y.).....3

Kazbek Bozorboy uli Nagashboev

The policy of soviet government in the field of physical culture and sports in the Turkestan ASSR – Uzbek SSR (1917 – 1945).....25

Казбек Бозорбой ули Нагашбоев

Политика советской власти в сфере физической культуры и спорта в Туркестанской АССР – Узбекской ССР (1917–1945 гг.).....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....53

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
TARIX INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TARIX INSTITUTI

QAZBEK BOZORBOY ULI NAG‘ASHBOYEV

**SOVET HOKIMIYATINING TURKISTON ASSR – O‘ZBEKISTON SSRda
JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDAGI SIYOSATI (1917-1945-y.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent, 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/ Tar.1803 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fati.uz) hamda "ZiyoNET" axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qahramon Kenjayevich Rajabov
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Baxtiyor Ergashevich Ergashev
tarix fanlari doktori, professor

Muzrobjon G'ulomovich Abdullayev
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
pedagogika universiteti**

Dissertasiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti huzuridagi ilmiy darajalarni beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2026-yil 18-sentyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy, Tarix instituti, 8-qavat, majlislar zali. Tel.: (+99871) 233-54-70; faks: (+99871) 233-39-91; e-mail: info@fati.uz).

Dissertasiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy). Tel.: (+99871) 262-74-58; faks: (+99871) 262-34-41).

Dissertasiya avtoreferati 2026-yil 3-sentyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil 2-sentyabrdagi 12- raqamli reestr bayonnomasi).



Azamat Ziyo
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., akademik

X.S. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.d (DSc)

F.S. Boboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d (DSc).

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida ro'y berayotgan globallashuv sharoitida ijtimoiy jarayonlar jadallashib, ommaviy madaniyat hamda raqamli axborot oqimlari jamiyat qadriyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, yangi raqamli texnologiyalar ta'sirida insonlarning faol jismoniy harakatlardan uzilib qolishi hamda bu jarayonlarning salomatlik madaniyatida dolzarb ahamiyat kasb etayotgani jismoniy tarbiya va sport sohasining ahamiyati oshishiga olib kelmoqda. Shu jihatdan, jismoniy tarbiya va sport sohasida bir qator samarali islohotlarni amalga oshirishning dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda.

Jahonning yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida, xalqlarning jismoniy antropologiyasi va shu masaladagi madaniyati va sport tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, sovet hokimiyati davlat tepasiga kelgach, ular o'z inqilobiy siyosatini jismoniy tarbiya va sport sohasiga ham singdirishi oqibatida xalqaro Olimpiada musobaqalarida ishtirok etishiga ta'qiq qo'yilishi, ular tomonidan jismoniy tarbiya va sport tizimi harbiy sohaga ixtisoslashtirishi, jismoniy tarbiya va sport sohasi boshqaruvi kommunistik partiya tasarrufiga o'tkazilishi hamda kommunistik mafkurani targ'ib qiluvchi Qizil sport internatsionali tashkiloti va demokratik mafkurani ilgari surgan Lyutsern sport internatsionali tashkiloti o'rtasida kechgan kurash masalalari yoritilgan. Biroq, sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRda milliy aholini jismoniy tarbiya va sport ishlariga qamrab olish uslublari hamda bundan ko'zlangan siyosiy va g'oyaviy maqsadlar, jumladan ko'p mehnat qila oladigan jismonan kuchli ishchi qatlamni yaratish siyosati, jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun maxsus sinov mashqlari bo'yicha me'yorlarning joriy qilinishi hamda ularning ikkinchi jahon urushi davrida harbiy ko'rinishga o'zgartirilganligi masalalari dolzarb ahamiyatga ega. Shu jihatdan, Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRning jismoniy tarbiya va sport sohasi tarixini o'rganish tadqiqotning zaruriyatini ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda tarix sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan asl tarixini milliy manfaatlarga mos ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etishni zaruratga aylantirmoqda. Zero, "Tarix tilga kirgan, tarixdan saboq olingan joyda, albatta, bilim va ma'rifat, taraqqiyot va adolat bo'ladi"¹. Darhaqiqat, Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRda yuz bergan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi jarayonlar o'sha davrdagi yosh avlodni tarbiyalashda, aholining jismoniy sog'ligini mustahkamlashda va inson genofondini saqlashda katta ta'sir ko'rsatganligi, buning natijasida sovet hokimiyati o'ziga xos boshqaruv usuli sifatida doim bu sohani o'z nazorati ostida ushlab turganligini xolisona yoritish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni qabul qilindi. Unga asosan "O'zbekiston Respublikasi

¹ O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 17-mart kuni Islom sivilizatsiyalari markazining rasmiy ochilish tadbiridagi nutqi / <https://president.uz/oz/lists/view/9018>

Спортни rivojlantirish vazirligi” negizida “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi” tashkil etildi. 2023-yil 7-aprel kuni “Ma’muriy islohotlar doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori tasdiqlandi. 2024-yil 20-yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-18-son Farmoniga muvofiq Yoshlar siyosati va sport vazirligi negizida Sport vazirligi tashkil etilishi belgilangan bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport faoliyatini takomillashtirishga oid bu kabi bir qator me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Mazkur dissertatsiya ishi doirasidagi tadqiqotlarni quyidagi uch guruhga bo‘lib tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. Sovet davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar;
2. Mustaqillik davrida olib borilgan ilmiy izlanishlar;
3. Xorij tadqiqotchilari tomonidan qilingan ilmiy ishlar.

Birinchi guruhga, sovet tuzumi davrida yaratilgan dissertatsiyalar² va ilmiy adabiyotlar kiradi³. Ushbu dissertatsiyalarda, Turkiston ASSR – O‘zbekiston SSRda

² Шоломицкий Ю.С. Физическая культура и спорт в Узбекистане за 40 лет советской власти (1917-1957 гг.): Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Ташкент, 1960. – 19 стр.; Ўша муаллиф. Физическая культура и спорт в Советской Средней Азии и сопредельных странах Востока.: Автореф. дисс. докт. пед. наук. – Ташкент, 1972. – 38 стр.; Суник А.Б. Развитие физической культуры в общеобразовательных школах Узбекистана за 50 лет.: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Львов. 1963. – 17 стр.; Тен К.П. Физическое воспитание студентов высших учебных заведений Узбекистана и пути его улучшения.: Автореф. дисс...канд. пед. наук. – Ташкент, 1969. – 19 стр.; Мамаджанов А.М. Деятельность коммунистической партии Узбекистана по организации оборонно-массовой работы среди трудящихся республики накануне и в годы великой отечественной войны (1939-1945 гг.): Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1970. – 27 стр.; Исмаилов Р.И. Руководящая роль Коммунистической партии Узбекистана в развитии физкультурного движения в республике (1917-1940гг.): Дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 1971. – 275 стр.; Абдумаликов Р. Пути внедрения физического воспитания и спорта в повседневную жизнь учащейся и рабочей молодежи (по материалам Самаркандской области Узбекской ССР). – Ташкент, 1975. – 29 стр.; Исаков М.Ф. Дружба народов СССР в развитии физической культуры и спорта в Узбекистане.: Автореф. дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 1976. – 72 бет; Мухитдинов М. Узбекистонда шахмат маданиятининг тарихи.: Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 1978. – 268 стр.; Казиева Р.А. Из истории развития физической культуры и спорта среди женщин Узбекистана в период строительства социалистического общества (1917-1958 гг.): Дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 1980. – 173 стр.; Штерн В.А. Спортивные игры в Узбекистане, их роль и значение в нравственном и физическом воспитании молодежи.: Дисс... канд. пед. наук. – Ташкент, 1980. – 137 стр.; Ищенко С.А. Заглавие Организационно-правовые вопросы управления физической культурой и спортом в Союзной Республике. Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – Ташкент, 1983. – 23 стр.; Салимов Р. Оборонно-массовая работа спортивных организаций Узбекистана в годы Великой отечественной войны (1941-1945 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 1983. – 24 стр.

³ Зисман Н.В., Шоломицкий Ю.С. Физкультура и спорт в Узбекистане. – Ташкент, 1956. – 120 стр.; Ковальев Ю. Физическая культура и спорт в Узбекистане. – Ташкент, 1956. – 95 стр.; Исмаилов Р., Яроцкий Я. Вопросы истории физической культуры и спорта в Узбекистане. – Ташкент: Ўқитувчи, 1968. – 120 стр.; Торопова Н.И., Выдрин В.М. Жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – 334 бет; Исмаилов

1917 – 1945-yillardagi jismoniy tarbiya va sport sohasi faoliyati sovet sporti g‘oyalari asosida yuritilganligi, buning natijasida soha rivojlanib borganligi ta’kidlanadi. Masalan, Y.Sholomitskiy tadqiqotlarida, sovet hokimiyatining Turkiston ASSR – O‘zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sohasida olib borgan siyosati natijasida burjuaziya g‘oyasi va siyosatiga qarshi samarali kurashilganligi, sovet davlati tarkibidagi O‘rta Osiyo respublikalari jismoniy tarbiya va sport sohasi mustaqil bo‘lgan bo‘lsa-da, til, qadriyat va an‘analar o‘xshashligi sababli mazkur sohada ularda “umumiylik, birlik” bo‘lganligi hamda sovet xalqlari sotsialistik jismoniy tarbiya va sportining mafkuraviy asosi “marksizm-leninizm” g‘oyalari bo‘lib hisoblanishiga oid masalalar yoritiladi. A.Mamajonov, R.Ismoilov va R.Salimovning tadqiqotlarida esa Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston SSRda ommaviy-mudofaa harakatlari va bunda jismoniy tarbiya va sport sohasi vakillarining qo‘shgan “hissa”lari hamda kommunistik partiyaning ishchi qatlam vakillarini ushbu harakatlarga jalb qilganligi masalalari o‘rin olgan. M.Isxakov ham bu soha tarixi bo‘yicha ilmiy izlanish olib borgan bo‘lib, unda O‘zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasi rivojlanishida sovet xalqlarining do‘stligi “muhim” ahamiyat kasb etganligi tadqiq etilgan. Bunda SSSR tarkibidagi boshqa respublikalarning ushbu soha “taraqqiyoti”dagi yordami, asosan sport-mahorat almashinuvi orqali, ya’ni qo‘shni respublikalar o‘rtasida sport musobaqalari va hamkorlikdagi sport yig‘inlari orqali ko‘rsatilganligi keltiriladi. Sotsialistik jamiyat qurilishi yillarida (1917-1958) O‘zbekiston SSRda xotin-qizlar sporti “rivojlanishi” ham o‘rganilgan bo‘lib, bu R.Kaziyevaning ilmiy ishlarida yoritilgan. Uning ishlarida bu davrda xotin-qizlari sporti rivojida “sovet hokimiyati olib borgan “islohotlar” katta o‘rin tutganligi urg‘ulanadi. O‘zbekiston SSRning ayrim viloyatlari kesimida ham jismoniy tarbiya va sport sohasi tarixi o‘rganilgan bo‘lib, buni R.Abdumalikovning tadqiqotlarida ko‘rish mumkin. Mazkur ilmiy izlanishlarda, Samarqand viloyati sport sohasi ham sovet hokimiyati sa’y-harakati natijasida “taraqqiy” etganligi keltiriladi.

Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlarni tahlil qilish orqali quyidagi xulosalar hosil qilindi: birinchidan, O‘rta Osiyo respublikalari jismoniy tarbiya va sport sohasi alohida tashkilotlar hisoblansa-da, sharqona qadriyat va an‘analar o‘xshashligi natijasida bu sohada ularda “jamoaviylik, birdamlik” bo‘lganligi hamda sovet sportining mafkuraviy asosi “marksizm-leninizm” g‘oyalari bo‘lib hisoblanishi masalasi tadqiq etilgan; ikkinchidan, Ikkinchi jahon urushi vaqtida O‘zbekiston SSRda ommaviy-mudofaa ishlari va ushbu ishlarni amalga oshirishda jismoniy tarbiya va

Р.И. Шоломицкий Ю.С. Ўзбекистонда физкультура тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 114 бет.; Боршин Н.А., Исҳоқов М.Ф. Ўзбекистон комсомолининг жумҳуриятда жисмоний тарбия ва спортни ривожлантириш бўйича фаолияти, (1924—1974 йиллар). — Тошкент: Ёш гвардия, 1975. – 123 бет.; Ивонин В. ГТО на марше. Сборник. – Москва: Физкультура и спорт, 1975. – 304 стр.; Яроцкий А., Поддубный А. Ўзбекистоннинг халқаро спорт алоқалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1980. – 21 стр.; Яхёев М. ГТО чемпиони: (Тўплам). – Тошкент: Ёш гвардия, 1982. – 72 стр.; Малая Энциклопедия: Физкультура и спорт. – Москва: Радуга, 1982. – 369 стр.; Одилов Т. Ўзбек полвонлари. – Тошкент: Тиббиёт, 1985. – 56 бет.; Ҳамроев Н. Мактабда ҳарбий-ватанпарварлик тарбияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 192 бет.; Тенк П. Ўзбекистон студентларини жисмоний тарбиялаш. Монография. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – 146 бет.; Керимов Ф.А. Кураш тушаман. – Тошкент: Тиббиёт, 1990. – 174 бет.; Тоймуродов О.Р. Ўзбек миллий кураши. – Тошкент: Ибн Сино, 1990. – 126 бет.

sport sohasi vakillarining “muhim” o‘rni hamda kommunistik partiyaning ishchi aholi qatlamini mazkur ishlarga jalb etganligi masalalari yoritilgan; uchinchidan, O‘zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasi “taraqqiyoti”da sovet xalqlarining birdamligi “muhim” ahamiyat kasb etganligi ko‘rsatilgan. Bunda SSSR tarkibidagi boshqa respublikalarning ushbu soha “rivojlanishi”dagi o‘rni, asosan o‘zaro sportchilarning mahorat almashinuvi orqali, ya’ni Butunittifoq respublikalari sport musobaqalari hamda qo‘shma sport yig‘inlar natijasida ko‘ringanligi urg‘ulangan; to‘rtinchidan, O‘zbekiston SSRda xotin-qizlar sporti “taraqqiyoti”da hamda viloyat kesimida mazkur soha “rivoji”da sovet hokimiyati yuritgan siyosat “katta” o‘rin tutganligi keltiriladi.

Shu o‘rinda aytish kerakki, bu davr tadqiqotlarida qator masalalar yoritilmagan. Jumladan, nafaqat O‘zbekiston SSR, balki butun SSSR sportchilari 1952-yilga qadar xalqaro olimpiada o‘yinlarida ishtirok etmaganligi va uning sabablari, sohadagi moliyaviy taqchilliklar, sport inshootlari qurilishi sust olib borilganligiga oid masalalar tadqiq etilmagan.

Mustaqillik davrida O‘zbekiston SSRning jismoniy tarbiya va sport tarixini yoritish biroz o‘zgardi. Endilikda, bu davrga kelib dissertatsiyalar⁴ hamda ilmiy adabiyotlarda⁵ sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasidagi faoliyati haqqoniy tarzda tanqid qilina boshlangan. Masalan, G.Asatovanning bu tadqiqot mavzusiga doir ilmiy faoliyatini ham alohida ta’kidlash lozim. G.Asatova o‘z tadqiqot ishlarida yigirmanchi yuzyillikning 20 – 30-yillarida O‘zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasida yuzaga kelgan inqiroz yoritilgan. Shuningdek, B.Mambetovlarning tadqiqotlarida sovet hokimiyati tomonidan Qoraqalpog‘iston ASSR milliy sport o‘yinlariga yetarlicha e’tibor qaratmaganligi ochib berilgan bo‘lsa, B.Nazirov ilmiy ishlarida Surxon vohasida sovet hokimiyati davrida sport sohasi faoliyati qanday kechganligi yoritilgan. Z.Abdullayeva esa o‘z tadqiqotlarida soha bo‘yicha tarxshunoslik tahlilini qilib bergan bo‘lib, ushbu ishlarda markazlashgan sport siyosatini yoritish, sovet sporti natijalarini tahlil etish tadqiqotchilar uchun istiqbolli bo‘lganligi, mazkur tadqiqotlar o‘sha davr talablari

⁴ Мамбетов Б.Ж. Традиции физической культуры и спорта Каракалпакстана и проблемы возрождения. XX-й век.: Дисс... канд. ист. наук. – Нукус, 2006. – 155 стр.; Абдуллаева З.А. История формирования и развития физической культуры и спорта в Узбекистана (1991-2006 гг.): Дисс... канд. ист. наук. – Ташкент, 2009. – 174 стр; Назиров Б.С. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи (XX аср – XXI аср бошларида Сурхон воҳаси мисолида): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Термиз, 2022. – 56 бет.

⁵ Нормуродов А. Ўзбек миллий ўйинлари. – Тошкент: Тафаккур, 1991. – 96 бет; Ботиров Х.А. Ўзбекистонда жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Ибн Сино, 1993. – 128 бет; Юнусов Т.Т., Абдумаликов Р., Ярашев К.Д. Ассалом Олимпиада. – Тошкент: ЎзДЖТИ, 1993. – 47 бет; Абдумаликов Р., Акромов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихини ўрганиш масалалари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 1994. – 42 бет; Ҳамроқулов А.К. Ўзбекистон Давлат Жисмоний тарбия институтининг 40 йиллиги. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёти. 1995. – 192 бет; Хўжаев Ф. Ўзбекистонда жисмоний тарбия. – Тошкент: Ўқитувчи. 1997. – 56 бет; Акромов А.К. Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спорт тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – 158 бет; Ярашев К.Д. Оммавий соғломлаштирувчи жисмоний тарбия халқ миллий ўйинлари бўйича мутахассислар тайёрлаш масалалари. – Тошкент: ЎзДЖТИ, 1997. – 92 бет; Имомхўжаев А. Мафтунингман футбол! – Тошкент: Шарқ, 2004. – 174 бет; Рўзиев А.Н., Азизов Н. Ўзбек миллий бел олиш кураш тарихидан. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – 220 бет; Хўжаев Ф., Мелиев Х., Юнусова Д. Жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2010. – 140 бет; Эргашев Д. Фарғона футболининг анъаналари: очерк, ҳикоя, суҳбат, репортаж, лавҳа ва ахборотлар. – Фарғона: Фарғона, 2012. – 112 бет; Джалилова Л. Жисмоний тарбия ва олимпия ҳаракати тарихи. – Тошкент: Ворис, 2017. – 432 бет; Асатова Г.Р. Олимпийская энциклопедия. – Ташкент: Ilmiy texnika axboroti-press, 2018. – 360 стр.

asosida olib borilganligi, sportning shakllanish asoslari bir tomonlama yoritilganligi hamda milliy sport turlari, ularning kelib chiqish tarixi va rivojlanishi umuman e'tibordan chetda qolganligi masalalari urg'ulangan.

Bu qismga tegishli ilmiy ishlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, yigirmanchi yuzyillikning 20 – 30-yillarida O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasida yuzaga kelgan iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlar ochib berilgan; ikkinchidan, sovet hokimiyati tomonidan Qoraqalpog'iston ASSR milliy sport turlariga katta ahamiyat bermaganligi yoritilgan; uchinchidan, viloyat kesimida sport tizimi boshqaruvi qanday olib borilganligi tadqiq etilgan; to'rtinchidan, tadqiqotchilar tomonidan sport sohasi tarixi tarixshunoslik tahlili amalga oshirilgan.

Biroq bu davrga mansub tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida bir necha masalalar o'z yechimini topmagan. Jumladan, sovet hokimiyati tomonidan tub yerli sportchilarga e'tibor sust qaratilganligi ta'kidlansa-da, uning nima sababdan e'tibordan chetda qolganligi masalasi tadqiq etilmagan. Bundan tashqari, sovet hokimiyati O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasida yuritgan siyosati qanday olib borilganligi hamda mazkur siyosat zahirida qanday manfaatlar ko'zlanganligi o'rganilmagan. Shuningdek, sovet hokimiyati o'z “manfaati” nuqtai nazaridan hatto O'zbekiston SSRning milliy sport o'yinlariga katta ahamiyat qaratgan bo'lib, bu masala tadqiqotlarga tortilmagan. Buni dalillovchi hujjatlar mazkur tadqiqot ishiga kiritilgan.

Professor Q.Rajabovning monografiyalari va O'zbekistonning XX asr tarixiga oid fundamental tadqiqotida⁶ sovet hokimiyatining asosan, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borgan siyosati yoritilgan.

Xorijiy mamlakatlarda, xususan, Tojikiston⁷, Qozog'iston⁸, Qirg'iziston⁹ va Rossiya Federatsiyasida¹⁰ ham yigirmanchi yuzyillik birinchi yarmida ushbu respublikalarning sport tarixi bo'yicha dissertatsiyalar qilingan. Masalan, Rossiya Federatsiyasida A.Filippov va A.Vasilev tadqiqot ishlarini bunga kiritish mumkin. Bu ishlarda ham sovet hokimiyatining bu respublikalardagi sport sohasidagi siyosatiga tanqidiy yondashilgan bo'lib, ularning ilmiy tadqiqotlarida sovet sporti va burjuaziya sporti o'rtasidagi kurash, sovet sportida “rekordchilik”ka nihoyatda katta e'tibor qaratilganligi, sovet sportining harbiy maqsadlarga ixtisoslashuvi masalalariga tanqidiy fikrlar keltirilgan.

⁶ Rajabov Q., Qandov B., Rajabova S. O'zbekiston tarixining muhim sanalari. 6-nashr. – Toshkent: O'zbekiston, 2015. – 480 bet; Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Ikki jildlik. Birinchi jild (1900-1939). – Toshkent: Fan, 2024. – 752 bet; Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Ikki jildlik. Ikkinchi jild (1939-1991). – Toshkent: Fan, 2024. – 720 bet; Rajabov Q., Amonova F., Qandov B. O'zbekiston tarixi. To'ldirilgan va qayta ishlangan 2-nashr. – Toshkent: O'chun, 2025. – 528 bet.

⁷ Бабаджанов А.К. История физической культуры и спорта в Таджикистане (1917-1997 гг.): Автореф. дисс... докт. ист. наук. – Душанбе, 1998. – 42 стр.

⁸ Saktaganova Z.G., Grigorkevich A.A. Physical Culture and Sports in the USSR and Soviet Kazakhstan in the 1940s-1980s // Opcion. – 2019. – №2(94). – P.80-87.

⁹ Тагаев М.И. Развитие физической культуры и спорта у кыргызов (исторический аспект): Дисс... канд. ист. наук. – Бишкек, 2018. – 152 стр.

¹⁰ Васильев А.А. Зарождение и развитие советского спорта в 1920-е гг.: Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Саратов, 2001. – 25 стр.; Филиппов А.Н. Государственная политика СССР в области физической культуры и спорта: 1920-1930 гг.: Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ярославль, 2012. – 26 стр.

Shuningdek, Buyuk Britaniya va AQShda qilingan ilmiy tadqiqotlarda¹¹ ham O'zbekiston SSRning jismoniy tarbiya va sport sohasi tarixi tanqidiy tahlil qilingan. Masalan, Buyuk Britaniyada ilmiy faoliyat yurituvchi James Riordan va Shevket Akyildiz o'z tadqiqotlarida SSSR, O'rta Osiyo va O'zbekiston sport sohasi bo'yicha tadqiqot olib borgan bo'lib, ushbu tadqiqotlarda sovet respublikalari, shu qatorda O'zbekiston SSRning jismoniy tarbiya va sport faoliyati harbiy sohaga ixtisoslashib borganligi hamda sovet hokimiyati iqtisodiy manfaatlari (yengil sanoat va qishloq xo'jaligi sohalari)ga xizmat qilganligi xolisona ochib berilgan. AQShda tadqiqot olib boruvchi T.Muxamatulin¹² sovet ayollar gimnastika sporti faoliyati bo'yicha o'z tadqiqot ishida, 1917 – 1991-yillarda sovet gimnastika sportining O'rta Osiyo respublikalari ayollar gimnastika sportiga ham kommunistik mafkurani singdirib borganligi yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotlarni o'rganish davomida quyidagi xulosalar shakllantirildi: birinchidan, O'rta Osiyo va Rossiya sport tarixi bo'yicha ilmiy ishlar qilingan; ikkinchidan, O'zbekistonga qo'shni O'rta Osiyo respublikalarida 1991-yildan keyingi davrda ham sport sohasi tadqiqotlari bo'yicha sovet davridagi ilmiy ishlar yondashuvidan deyarli farq qilmaydigan ishlar yaratilgan, aksincha, hozirgi Rossiyada amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda sovet hokimiyatining sport sohasidagi siyosatiga xolisona yondashilgan bo'lib, sovet sporti burjuaziya va sotsial-demokratik sport (LSI, Lyutsern-Shvetsariya) yo'nalishlariga qarshi faoliyati, ular o'rtasidagi kurash, sovet sportida "rekordchilik"ka katta ahamiyat berilganligi, sovet sportining mudofaa maqsadlariga ixtisoslashib borganligi masalalari tadqiq etilgan; uchinchidan, AQSH tadqiqotlarida O'rta Osiyo respublikalarida xotin-qizlarning gimnastika sportiga jalb qilinishi hamda sovet hokimiyatining kommunistik mafkurasi bu sport turiga ham o'z ta'sirini o'tkazganligi yoritilgan; to'rtinchidan, Buyuk Britaniya ilmiy ishlarida SSSR, O'rta Osiyo va O'zbekiston sport sohasi bo'yicha tadqiqot olib borgan bo'lib, ushbu ishlarda SSSR, shu qatorda O'zbekiston SSRning jismoniy tarbiya va sport faoliyati sovet hokimiyatining iqtisodiy hamda harbiy manfaatlariga ixtisoslashib borganligi tadqiq etilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, bu davlat tadqiqotchilari O'zbekiston SSRdagi sport sohasida yuritilgan siyosatni to'liq ochib bera olmagan. Sababi, bu tadqiqotchilar tomonidan sohaga mintaqaviy nazardan baho berib, ko'pincha sovet sporti hukmronlik qiluvchi respublikalarda xalqaro musobaqalarda ishtirokning mavjud emasligi masalasiga diqqat qaratiladi va bu holat sport sohasi taraqqiy etmaganligi bilan

¹¹ Riordan James. Sport in Soviet society: development of sport and physical education in Russia and the USSR. – Cambridge: Cambridge university press, 1977. – P.80.; Akyildiz Sevk. Soviet Physical Culture in Uzbekistan Implementation and Social Impact // Sports and Coaching: Pasta and Futures. – 2012. – Chapter 6. – P.106-123.; O'sha muallif. "Modern and Folk Sports in Central Asia under Lenin and Stalin: Uzbekistan from 1925 to 1952" // Vakanuvis. – 2019. – №4/2. – P.515–541.; Gounot Andre. Sport or political organization? Structures and characteristics of the Red sport international, 1921-1937 // Journal of Sport history. – 2001. – Volume 28. – №1. – P.23, 35.; Keys Barbara. Soviet sport and transnational mass culture in the 1930s // Journal of Contemporary history. – 2003. – Volume 38. – №3. – P.413-434.; Khudoyorov N.M.. Collectivization policy of the Soviet government in Uzbekistan (as the example 1920-1930) // Frontline social sciences and history journal. – 2022. – Volume 2. – Issue 2. – P.81-88.; Riddell John. The Red sport international (1921-1937): Harnessing recreation to the revolution // Green left (Ultimo). – 2022. Issue 1339. – P.1-5.

¹² Mukhamatulin T. Twisting femininity. Women's gymnastics in the Soviet Union (1917-1991).: Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy Graduate program in History. – New Jersey, 2024. – 240 page.

baholanadi. Lekin hududdagi ichki vaziyatdan to'liq boxabar bo'lmashlik natijasida ularning tadqiqotlarida ba'zi jihatlar ochib berilmagan. Xususan, tub yerli aholini sportga targ'ib qilish ishlari, bunda sovet hokimiyati qanday targ'ibot usullarini qo'llaganligi va boshqa masalalar o'rganilmagan.

Mazkur tadqiqot mavzusining tarixshunoslik tahliliga tayanib aytish mumkinki, bu bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot ishlari katta ko'lamni tashkil qiladi. Biroq, bu tadqiqotlarda sovet hokimiyati tomonidan 1917 – 1945-yillarda Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRning jismoniy tarbiya va sport sohasida yuritilgan siyosatga kam e'tibor qaratilgan. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport sohasi o'z faoliyat yo'nalishidan ko'ra sovet davlatining boshqa soha manfaatlari (sovet davlati iqtisodiyoti va mudofaa salohiyatini mustahkamlash)ga ko'proq xizmat qila boshlaganligi maxsus tadqiqot sifatida o'rganilmagan bo'lib, bu holat mazkur muammoni yaxlit tadqiqot obyekti sifatida ilmiy o'rganish zaruriyatini tug'diradi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix institutining "O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)" nomli o'n jildlik tadqiqotlar yaratish rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sovet hokimiyatining 1917 – 1945-yillarda Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasida yuritgan siyosatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bolsheviklarning jismoniy tarbiya sohasidagi faoliyatini tadqiq etish; jismoniy tarbiyaning harbiy maqsadlarga yo'naltirilishini ochib berish;

jismoniy tarbiya va sport tuzilmasi ta'sis etilishini tahlil qilish;

aholi orasida jismoniy tarbiya va sportni yoyish targ'ibotining kuchayishi;

jismoniy tarbiya va sport sohasining davlat mudofaa maqsadlariga ixtisoslashuvini ko'rsatish;

jismoniy tarbiya tashkilotlari va komsomol (Yoshlar ittifoqi qo'mitasi) tomonidan urush sharoitida amalga oshirilgan ishlarni tadqiq etish;

ommaviy sport turlari holati va sportchilarning xalqaro musobaqalarda ishtirokini tahlil qilish;

GTO (Mehnat va mudofaaga tayyor) sinov mashqlarining topshirilish holati va sport inshootlari qurilishi ahvolini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida sovet hokimiyatining 1917 – 1945-yillarda Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi siyosati tanlangan.

Tadqiqotning predmetini sovet hokimiyatining Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasini harbiy va mudofaa maqsadlariga ixtisoslashuvi, mehnat unumdorligi, milliy, ommaviy va harbiy sport musobaqalari o'tkazilishi hamda moliyaviy ta'minot siyosati tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, muammoviy-xronologik tahlil, tizimlashtirish va statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Turkiston ASSR – O‘zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasining boshqarish siyosati g‘oyaviy jihatdan uch davrga: 1921-1924-yillarda – Turkiston fronti Umumiy harbiy ta‘lim boshqarmasi tasarrufidagi Turkiston jismoniy tarbiya markaziy kengashi davri (*yerli aholini harbiy askar qilib tayyorlash maqsad qilingan*); 1925-1936-yillarda – rasmiy jihatdan O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tasarrufidagi, amalda esa kommunistik mafkurani yoyish vazifasini bajaruvchi Qizil sport internatsionali tashkiloti huzuridagi Jismoniy tarbiya Oliy kengashi davri (*yerli aholi orasidan ishchi qatlam vakillarini yaratish maqsad qilingan*); 1936-yildan O‘zbekiston SSR Xalq komissarlar soveti tasarrufidagi Jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi davri (*dunyoda mavjud fashistik-kapitalistik urusholdi qarama-qarshilik jarayonida, sovet hokimiyati tomonidan sport orqali xalqaro siyosatda kommunistik mafkurani keng yoyish maqsad qilingan*) sifatida faoliyat yuritganligi asoslangan;

sovet hukumati ilk davrlarda O‘zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasini siyosiy maqsadlarda foydalanish quroliga aylantirish uchun milliy o‘yinlarni ta‘qiqlash (*kurash, ot sporti va h.k.*), maktablarda milliy va turk millatiga mansub jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini vazifasidan chetlashtirib, o‘rniga o‘z mutaxassislarini qo‘ygan bo‘lsada, 1929-yilga kelib mamlakatda industrlashtirish, jamoalashtirish jarayonlari boshlangach mustamlaka hukumati milliy aholiga g‘oyaviy yaqinlashish va shu orqali o‘z mafkurasini singdirish maqsadida milliy o‘yinlarga qo‘yilgan ta‘qiqni yumshatib borgani dalillangan;

sovet hokimiyati tomonidan 1930-yillarda yengil sanoatni rivojlantirish maqsadida paxta siyosatini o‘rnatilishi hamda qo‘l kuchiga ehtiyoj yuqoriligi sababli jismonan baquvvat va sog‘lom ishchi kuchini tayyorlashning dolzarblashishi natijasida kolxoz-sovхозlarda sport to‘garaklari tashkil qilingan hamda asosan yoshlar qamrab olinib ular orasida milliy g‘oyalarni cheklash (diniy, milliy marosimlarga bormaslik, bayramlarni nishonlamaslik), ko‘proq mehnatga jalb qilish (bayram va dam olish kunlari ham ishga chiqish tashabbusi, zarbdor qahramonlarni yasash) harakatlarini to‘garak rahbarlari orqali amalga oshirish siyosatini yuritganligi aniqlangan;

1931 – 1934-yillarda sovet kishilarini jismoniy jihatdan sog‘ligini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan 14 yoshdan kichiklar uchun BGTO (Mehnat va mudofaaga bo‘l tayyor) va 14 yoshdan kattalar uchun GTO (Mehnat va mudofaaga tayyor) sport sinov mashqlarining tashkil qilinishi jismoniy tarbiya asosida salomatlikni asrash deb talqin qilingan bo‘lsada, aslida aholini jamoaviy mehnatga tayyorlash va harbiy mudofaa ishlariga yo‘naltirish maqsad qilingani asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Sovet hokimiyati tomonidan 1917 – 1945-yillarda Turkiston ASSR – O‘zbekiston SSRning jismoniy tarbiya va sport sohasida yuritgan siyosatiga doir O‘zbekistondagi turli arxivlariga tegishli 1000 dan ziyod hujjatlar va 20 ga yaqin matbuot nashrlari o‘rganilishi natijasida ko‘plab hujjatlardagi yangi ma‘lumotlar ilmiy muomalaga kiritildi. Tadqiqot natijasida yig‘ilgan ilmiy ma‘lumotlarni tarix fani bo‘yicha adabiyotlarda Turkiston ASSR – O‘zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport tarixini yoritishda qo‘llash mumkin;

Jismoniy tarbiya va sport sohasiga malakali mutaxassis kadrlarni maxsus tayyorlash, mazkur sohani muntazam moliyalashtirib borish, sportchilarning xalqaro shohsupalarda g‘olib bo‘lishini ta‘minlash hamda shu kabi boshqa ish jarayonlarida kuzatiladigan kamchilik va to‘siqlarni bartaraf etish bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida tarix fanida tan olingan yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, birlamchi manbalarga tayanilganligi, ilmiy adabiyotlardan va arxiv hujjatlaridan foydalanilganligi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sovet davrining dastlabki sal kam o‘ttiz yili davomida jismoniy tarbiya va sport sohasi bo‘yicha yuritgan siyosatini haqqoniylik va xolislik usullari asosida yoritilishi mavzuga doir ma‘lumot hamda mulohazalarni mukammallashtirilishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijasida shakllantirilgan ilmiy ma‘lumotlar, fikr-mulohazalarni maktablar, oliygohlar uchun jismoniy tarbiya va sportga doir darslik va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlashda hamda sovet davridagi sport tarixiga doir loyihalarni ishlab chiqishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sovet hokimiyatining Turkiston ASSR – O‘zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi siyosati (1917 – 1945-y.) mavzusi doirasida olingan xulosa va takliflar asosida:

Turkiston ASSR – O‘zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasining boshqarish siyosati g‘oyaviy jihatdan uch davrga: 1921-1924-yillarda – Turkiston fronti Umumiy harbiy ta‘lim boshqarmasi tasarrufidagi Turkiston jismoniy tarbiya markaziy kengashi davri (*yerli aholini harbiy askar qilib tayyorlash maqsad qilingan*); 1925-1936-yillarda – rasmiy jihatdan O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tasarrufidagi, amalda esa kommunistik mafkurani yoyish vazifasini bajaruvchi Qizil sport internatsionali tashkiloti huzuridagi Jismoniy tarbiya Oliy kengashi davri (*yerli aholi orasidan ishchi qatlam vakillarini yaratish maqsad qilingan*); 1936-yildan O‘zbekiston SSR Xalq komissarlar soveti tasarrufidagi Jismoniy tarbiya va sport qo‘mitasi davri (*dunyoda mavjud fashistik-kapitalistik urusholdi qarama-qarshilik jarayonida, sovet hokimiyati tomonidan sport orqali xalqaro siyosatda kommunistik mafkurani keng yoyish maqsad qilingan*) sifatida faoliyat yuritganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan “Ma‘rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining ayrim ko‘rsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi, “Ma‘rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 23-dekabr 01-33/975-sonli ma‘lumotnoma). Taqdim etilgan materiallar telekanal ko‘rsatuvlari ssenariylarini boyitishga xizmat qiladi;

sovet hukumati ilk davrlarda O‘zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasini siyosiy maqsadlarda foydalanish quroliga aylantirish uchun milliy o‘yinlarni ta‘qiqlash (*kurash, ot sporti va h.k.*), maktablarda milliy va turk millatiga mansub jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini vazifasidan chetlashtirib, o‘rniga o‘z mutaxassislarini qo‘ygan bo‘lsada, 1929-yilga kelib mamlakatda

industrialashtirish, jamoalashtirish jarayonlari boshlangach mustamlaka hukumati milliy aholiga g'oyaviy yaqinlashish va shu orqali o'z mafkurasini singdirish maqsadida milliy o'yinlarga qo'yilgan ta'qiqni yumshatib borganiga oid ma'lumotlardan 2022 – 2024 yillarda O'zR FA Tarix instituti tomonidan bajarilgan FZ – 202007287 “O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari (eng qadimgi davrlardan 1991 yilgacha) elektron “Aqlli kutubxona” platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2026-yil 19-mart 3/1255-745-sonli ma'lumotnoma). Aniqlangan arxiv hujjatlari Turkiston ASSR – O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasining kam o'rganilgan qismini ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi;

sovet hokimiyati tomonidan 1930-yillarda yengil sanoatni rivojlantirish maqsadida paxta siyosatini o'rnatilishi hamda qo'l kuchiga ehtiyoj yuqoriligi sababli jismonan baquvvat va sog'lom ishchi kuchini tayyorlashning dolzarblashishi natijasida kolxoz-sovхозlarda sport to'garaklari tashkil qilingan hamda asosan yoshlar qamrab olinib ular orasida milliy g'oyalarni cheklash (diniy, milliy marosimlarga bormaslik, bayramlarni nishonlamaslik), ko'proq mehnatga jalb qilish (bayram va dam olish kunlari ham ishga chiqish tashabbusi, zarbdor qahramonlarni yasash) harakatlarini tugarak rahbarlari orqali amalga oshirish siyosatini yuritganligiga oid birlamchi arxiv manbalari hujjatlaridan “Ma'rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O'zbekiston tarixi” telekanalining ayrim ko'rsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan. (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi, “Ma'rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 23-dekabr 01-33/975-sonli ma'lumotnoma). Taqdim etilgan materiallar telekanal ko'rsatuvlari ssenariylarini boyitishga xizmat qiladi;

1931 – 1934-yillarda sovet kishilarini jismoniy jihatdan sog'ligini mustahkamlash maqsadida tashkil etilgan 14 yoshdan kichiklar uchun BGTO (Mehnat va mudofaaga bo'l tayyor) va 14 yoshdan kattalar uchun GTO (Mehnat va mudofaaga tayyor) sport sinov mashqlarining tashkil qilinishi jismoniy tarbiya asosida salomatlikni asrash deb talqin qilingan bo'lsada, aslida aholini jamoaviy mehnatga tayyorlash va harbiy mudofaa ishlariga yo'naltirish maqsad qilinganiga oid ma'lumotlardan 2022 – 2024-yillarda O'zR FA Tarix instituti tomonidan bajarilgan FZ – 202007287 “O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi manbalari (eng qadimgi davrlardan 1991-yilgacha) elektron “Aqlli kutubxona” platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2026-yil 19-mart 3/1255-745-sonli ma'lumotnoma). Aniqlangan arxiv hujjatlari Turkiston ASSR – O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasining kam o'rganilgan qismini ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalar, qarashlar hamda dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari tadqiqotchi tomonidan chop etilgan bir qator ilmiy ishlarda o'z ifodasini topgan. Jumladan, tadqiqot natijalari 6 ta ellararo va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqotning natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish nashr qilingan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasini asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 1 ta xorijiy jurnallarda va 3 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 147 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning O'zbekiston fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilish darajasi ochib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Turkiston ASSRda jismoniy tarbiya sohasining ahvoli (1917-1924-y.)”** deb nomlanib, unda azaldan Turonda tub yerli aholi kurash va ot sporti bilan muntazam shug'ullanganligi, Rossiya mustamlakachiligi davrida jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi usuldagi maktablarda badan tarbiya mashg'ulotlari olib borilganligi, istiqlolchilik harakati ishtirokchilarining harbiy janglarida jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarining o'rni yuqori bo'lganligi, Turkiston ASSRda jismoniy tarbiya tuzilmasining ta'sis etilishi, sohaning harbiylashtirilishi, chaqiriq yoshidagilarni ro'yxatga olinishi, to'garak va musobaqalarda tibbiy-nazoratning joriy etilishi yoritilgan.

O'n to'qqizinchi yuzyillik oxiri – yigirmanchi yuzyillik boshlarida Turkistonda jadidlarning ko'plab sa'y-harakatlari natijasida yangi usuldagi maktablar tashkil qilingan. Xususan, Abdulla Avloniy (1878-1934) “Turkiy guliston yoxud ahloq” asarida bola tarbiyasini to'rtga ajratadi: tarbiyaning zamoni, badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi va ahloq tarbiyasi”¹³. Abdurauf Fitrat (1886-1938) o'z xalqi yoshlarini ilmiy, ma'rifatli qilish maqsadida Germaniya va Turkiyaga o'qishga jo'natgan. U o'zining “Rahbari najot” asarida, tarbiyani 3 ga bo'ladi: jismoniy tarbiya (salomatlik), aqliy tarbiya (sog'lom fikrlilik) va ahloqiy tarbiya (ahloqiy poklik)¹⁴. Shu qatorda Ahmad Zakiy Validiy To'g'on (1890 – 1970) 1918 – 1924-yillardagi istiqlolchilik harakatida jismoniy tayyorgarlikning amaliy ahamiyati katta bo'lganligini qayd etadi¹⁵.

Turkiston ASSRda 1921-yil boshlarida Turkiston frontining Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasi tasarrufida Jismoniy tarbiya Markaziy Soveti tuzilib, undan

¹³ Avloniy A. Turkiy guliston yoxud ahloq. – Toshkent, 1913. – B.6.

¹⁴ Fitrat A. Rahbari najot. – Buxoro, 1915. – B.5.

¹⁵ Ahmad Zakiy Validiy To'g'on. Xotiralar: Turkistonda mustaqillik va ozodlik uchun kurashlar tarixi. Tarjimon, ilmiy tahrir muallifi va nashrga tayyorlovchi M.Abdurahmonov. – Toshkent: Istiqlol nuri, 2014. – B.112-114, 186-189.

avval faoliyat yuritib kelgan Sport kengashi yopilgan¹⁶. 1923-yil o'rtalarida esa yuqorida ta'kidlangan Markaziy Sovet o'rnida, Turkiston ASSR MIQ tasarrufida Turkiston o'lkasi Jismoniy tarbiya Soveti tuzildi¹⁷. 1918-yildan boshlab jismoniy tarbiya tuzilmasi respublika va O'rta Osiyo miqyosidagi sport musobaqalarini o'tkaza boshladi¹⁸. 1920-yilda ilk bora O'rta Osiyo olimpiadasi, 1924-yilda 1-Butunturkiston jismoniy tarbiya bayrami musobaqasi o'tkazildi¹⁹.

1921-yildan Turkiston ASSR jismoniy tarbiya tuzilmasi Turkiston frontining Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazilgach, uning faoliyati harbiy sohaga ixtisoslashib bordi. Uning bosh vazifasi etib, tub yerli erkaklarni Turkiston ASSR mudofaasi uchun emas, balki RSFSR xavfsizligi uchun qalqon bo'lib beruvchi askar qilib tayyorlab borish belgilandi. Bu kabi vazifalarni bajarishda, Turkiston Kommunistik partiyasi "salmoqli" o'rin egalladi²⁰. Jumladan, Turkiston ASSR o'quv muassasalari va maktablarida harbiy bo'linmalarni tashkil etish bo'yicha Turkiston Kommunistik partiyasi bir necha "muhim" qarorlarni chiqargan.

Shundan so'ng, boshqarma 1921-yil fevral oyidan boshlab "Militsionnaya armiya" jurnalini chop eta boshlaydi²¹. Mazkur jurnal bolsheviklarning harbiy maqsadlarga qaratilgan g'oyalarini tub yerli aholi orasida targ'ib qiluvchi asosiy vositaga aylana borgan. Xususan, jurnaldagi ikkinchi maqola mazkur boshqarma boshlig'i Izrailevga tegishli bo'lib, u quyidagicha fikr bildiradi: "Bizning eng birinchi vazifamiz bu tub aholini armiyaga jalb etish uchun, ularga yaqin va har birlarini tushuna oladigan tuzilma tashkil etishdir. Buning uchun biz juda qisqa vaqt ichida o'z kadrlarimizni milliy aholi orasidan tayyorlashimiz kerak"²².

Turkiston ASSR Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasi, o'zining yana bir faoliyat bo'limi – Chaqiriq yoshigacha bo'lgan o'smir-yoshlarni ro'yxatga olish va ular orasida harbiy-tayyorgarlik mashg'ulotlarini olib borish bo'limi hisoblangan²³. 1921-yil 25-yanvar holati bo'yicha, bo'lim tomonidan jami 16 667 nafar tub yerli aholini ro'yxatga olingan va harbiy-tayyorgarlik mashg'ulotlari olib borilgan.

Bolsheviklar asosan, ko'plab yerli aholi vakillarini, "jismoniy tarbiya mashg'ulotlari"ga jalb etib, aslida istiqloлчаilik harakatlariga qarshi armiya askarlari sifatida foydalangan. Milliy aholining o'z vatandoshlariga kurashga kirishiga sabab, bolsheviklarning istiqloлчаilik harakati ishtirokchilarini xalqqa "bosmachi", "dushman" sifatida ko'rsatishga uringani bo'ldi. Buning natijasida Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasining shunday harbiy harakatlarida – T.A'loyev, Q.Yusupov, A.G'oziev, U.Asadovlar faol qatnashgan bo'lib, ular shu bilan birga Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasining eng birinchi yo'riqchilari hisoblanadi²⁴.

¹⁶ Мамбетов Б.Ж. Традиции физической культуры и спорта Каракалпакстана и проблемы возрождений, XX-й век.: Дисс... канд. ист. наук. – Нукус, 2007. – С.67-68.

¹⁷ O'zbekiston milliy arxivi (O'zMA). R-735-jamg'arma, 1-ro'yxat, 992-yig'majild, 16-varaq va orqa tarafi.

¹⁸ Farg'ona viloyati davlat arxivi (Farg'ona VDA). 66-jamg'arma, 1-ro'yxat, 511-yig'majild, 45-varaq.

¹⁹ Л.А.Джалилова. Жисмоний тарбия ва Олимпия ҳаракати тарихи. – Тошкент: Ворис, 2017. – Б.108-109.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi arxivi (O'zbekiston RPAA). 60-jamg'arma, 5-ro'yxat, 105-yig'majild, 8-varaq.

²¹ O'zMA. R-17-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1073-yig'majild, 43-varaq.

²² Израилев А. Наши очередные задачи // Милиционная армия. – 1921. - №2. – С.2-4.

²³ O'zMA. R-17-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1073-yig'majild, 52-varaq orqa tarafi.

²⁴ Xo'jayev F. Jismoniy tarbiya tarixi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2010. – Б.11.

Nafaqat sport sohasini harbiylashtirish, balki qizil armiyani sport sohasiga yaqinlashtirish harakatiga ham bolsheviklar katta e'tibor qaratgan. Jumladan, Farg'ona viloyati Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasi huzuridagi Jismoniy tarbiya ittifoqining 1921-yil 18-noyabrdagi yig'ilishida, Qizil armiyani sport sohasiga yaqinlashtirish bo'yicha muhim fikrlar yuritilgan. Muhokamalar natijasida, RSFSR tomonidan "Qizil armiyani sport sohasiga yaqinlashtirish bo'yicha" buyrug'i chiqarilgan²⁵.

Yana bir muhim masala, bu avvalo Namangan uyezdi jismoniy tarbiya soveti tomonidan, keyinchalik butun respublika miqyosida chaqiriq yoshidagilarni shug'ullantirish faoliyatiga tibbiy nazoratni joriy etish zarurati bo'yicha qaror qabul qilinganligidir²⁶. Asosan, bolsheviklar doim jismoniy tarbiyadagi tibbiy nazoratning o'rni – to'garak a'zolarini sog'lom, barkamol qilib rivojlantirishda o'ta muhim ekanligini ta'kidlasada, aslida tibbiy nazorat – ularni jismonan puxta tarbiyalab, bu orqali ularning samarali mehnat qilishini va mo'may daromad olib kelishini ta'minlovchi hamda shu bilan birga, sovet mudofaasi uchun mustahkam qalqon bo'la oladigan askarlarni yetishtirishga xizmat qiluvchi vosita bo'lgan.

Xulosa o'rnida aytganda, Turkiston ASSR tashkil etilgan vaqtda hududda azaldan mavjud milliy sport o'yinlari qatoriga yangi zamonaviy sport turlari kirib keldi. Universitetlarda (Turkiston Xalq universitati) bu kabi sport turlaridan – suzish, gimnastika va yengil atletikani o'rgatuvchi maxsus to'garak va mashg'ulotlar tashkil etildi. Shuningdek, hududda sport tuzilmalari ham o'z faoliyatini boshladi. Dastlab, Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasi tashkil etildi. So'ngra uning huzurida Turkiston ASSR Jismoniy tarbiya Markaziy kengashi tuzildi. Bolsheviklar tomonidan mazkur tuzilmalar orqali Turkiston ASSRda kommunistik g'oyani keng yoyishda foydalanildi.

Dissertasiyaning **"O'zbekiston SSRda jismoniy tarbiya va sport sohasi vazifalarining o'zgartirilishi (1925 – 1938-y.)"** deb nomlangan ikkinchi bobida sovet hokimiyati tomonidan 1925-yilda O'zbekiston SSRda tuzilgan jismoniy tarbiya tuzilmasi nizomiga Qizil sport internatsionali tashkilotining bu tuzilma ustidan nazorati o'rnatilishining belgilanishi, tub yerli aholi orasida sport to'garaklariga jalb qilish bo'yicha targ'ibotning kuchayishi, mehnat unumdorligini oshirish maqsadida ishchi qatlamni sport mashg'ulotlariga jalb etilishi, sport sohasining mudofaaviy maqsadlarda foydalanilishi masalalari ochib berilgan.

1925-yil 7-yanvarda O'zbekiston SSR MIQ boshqaruvi ostida O'zbekiston SSR Jismoniy tarbiya Oliy kengashi ta'sis etilgan²⁷. Jismoniy tarbiya Oliy Kengashi rahbari etib O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti raisi Fayzulla Xo'jayev tayinlangan²⁸. Bunday katta shaxsning bu lavozimga tayinlanishi – sovet hokimiyati O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya sohasini juda muhim (aslida

²⁵ Farg'ona VDA. 66-jamg'arma, 1-ro'yxat, 503-yig'majild, 19-varaq.

²⁶ Farg'ona VDA. 66-jamg'arma, 1-ro'yxat, 609-yig'majild, 47-varaq.

²⁷ O'zMA. R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2650-yig'majild, 208-209-varaqlar; O'sha arxiv. R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2237-yig'majild, 17-varaq.

²⁸ Советский день / Правда востока, 28 мая 1925 года.

“manfaatli”) masala sifatida baholaganligi kelib chiqadi²⁹.

Bu davrda ham jadidchilik harakati jismoniy tarbiya sohasida munosib faoliyat yuritadi. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxonov shaxmat sporti bo'yicha musobaqalarni tashkil qilishda ishtirok etgan. Shu bilan birga, u o'zi ham shaxmat musobaqalarida dona surib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Jumladan, 1925, 1926 (2-o'rin), 1927 (2-o'rin) va 1928-yillarda (1-o'rin) Toshkentda o'tkazilgan musobaqalarda munosib qatnashgan³⁰. Shu o'rinda aytish kerakki, 1926-yilda Toshkent shaxmat seksiyasi maxsus komissiyasi Munavvarqori Abdurashidxonovni 2-darajali kuchli o'yinchilar safiga kiritgan. Joriy yilda u 2-o'rinni olgan musobaqalarda, ko'pincha g'olib keladigan asosiy raqibi Azmiddin Xo'jayev 1-darajali kuchli o'yinchilar safiga kiritilgan.

Sovet davlatining QSI tashkiloti, Shveysariyaning Lyutsern shahrida tashkil etilgan – sotsialistik va demokratik mafkurada faoliyat yuritgan Lyutsern Sport Internatsionali (LSI)³¹ sport yo'nalishini rekordchilikka mukkasidan ketgan va individual sportlarga katta e'tibor qaratishini aytsa-da, QSI sport tarmog'i ham xuddi shunday edi. QSI tashkiloti ham LSI kabi rekordchilikka jiddiy e'tibor qaratganligi – 1929-yilda SSSR miqyosida Jismoniy tarbiya Sovetlarining qayta tashkil etilish jarayonida aniq namoyon bo'ldi³². Ya'ni, jismoniy tarbiya sovetlari qayta ta'sis etilishiga – aynan ishchi qatlamni rekordchi etib tayyorlashda ozchilik miqdorning qamrab olinganligi sabab sifatida ko'rsatilgan³³. Bu vaqtda sport ichki siyosatning muhim elementiga aylanib borgan³⁴.

Sovet hokimiyati milliy aholiga yaqinlashish va ularni sportga targ'ib qilishda, asosan – milliy sport o'yinlaridan foydalandi³⁵. Xususan, 1925-yilda Jismoniy tarbiya Oliy Kengashi – respublika bo'ylab o'z tarkibidagi barcha jismoniy tarbiya bo'yicha quyi tashkilotlarga - milliy aholi orasida jismoniy tarbiyani chuqur targ'ib qilish yo'lida – milliy sport mashqlarini, o'yinlarini puxta o'rganib olish hamda o'zbek tilini biladigan yo'riqchi va murabbiylarni tayyorlash juda muhim ekanligini ma'lum qilgan³⁶.

Butunittifoq musobaqalaridan biri 1-sentyabrda Odessa shahrida o'tkazilishi rejalashtirilgan jamoaviy shaxmat bellashuvi edi³⁷. Oliy Kengash bu bo'yicha yig'ilish o'tkazib, mazkur musobaqada ishtirok etuvchi 10 ta O'zbekiston SSR vakillari (4 nafari o'zbek)ni borib-kelish harajatiga 2 000 rubl ketishi va bu mablag'ni to'liq berishga qodir emasligini ma'lum qilgan³⁸. Oliy Kengash bu mablag'ni topishda Kasaba uyushmasidan umidvor bo'lgan. Oliy Kengash

²⁹ O'zMA. R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3150-yig'majild, 89-90-varaqlar.

³⁰ Shaxmat xabarleri / Qizil O'zbekiston, 1928-yil 15-iyun.

³¹ Люцерн спорт интернационали (ЛСИ) – капиталистик давлатларда (Фарб ва АКШ) ташкил этилган спорт йўналиш тармоғи.

³² Всесоюзный Совет Физкультуры при ЦИК СССР / Правда востока, 17 октября 1929 года.

³³ Бу ҳақда батафсил қаранг: Филиппов А.Н. Государственная политика ССР в области физической культуры и спорта (1920-1930 гг.). Автореферат дисс. ... канд. ист. наук. – Ярославль, 2012. – С.16-17.

³⁴ O'zMA. R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 4538-yig'majild, 9-varaq.

³⁵ Samarqand VDA. 75-jamg'arma, 1-ro'yxat, 4-yig'majild, 42-varaq.

³⁶ O'zMA. R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 928-yig'majild, 118-varaq.

³⁷ O'zMA. R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2596-yig'majild, 12-varaq.

³⁸ O'zMA. R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 5967-yig'majild, 111-varaq.

tomonidan Eski Buxoroda stadion qurish uchun mablagʻ ajratilgan³⁹. Mazkur stadion qurilishi uchun jami 1928-yil byudjetidan 6 000 rubl ajratilgan boʻlsa-da, stadion taʼmirdan soʻng yaroqsiz deb topilgan⁴⁰. Shuningdek, qishgi sport inshootlari ozligi va yetishmovchiligi sababli mashgʻulotda shugʻullanuvchilar soni kamayib brogan⁴¹. Masalan, dekabrgacha mashgʻulotda qatnashish koʻrsatkichi 95 foiz boʻlgan boʻlsa, bahorgacha boʻlgan sovuq iqlim sharoitida esa 30 foizgacha tushib ketgan.

Sovet hokimiyati Oʻzbekiston SSRda mehnat samaradorligini oshirish ishlari nafaqat, fabrika-zavodlarga, balki shu bilan birga paxta terimi ishlariga ham yoʻnalitirila boshlangan⁴². Jumladan, Oʻzbekiston SSR Jismoniy tarbiya Oliy kengashi tomonidan 1929-yil 2-oktyabrda “Jismoniy tarbiya tashkilotlarining paxta dasturini bajarish ishlaridagi ishtiroki boʻyicha” barcha jismoniy tarbiya tashkilotlariga murojaat xati joʻnatilib, jismoniy tarbiya tashkilotlari - Proletariat madaniy armiyasining jangovar qismi hisoblanishi va madaniy inqilobda faol ishtirok etishi lozimligi taʼkidlangan.

Yigirmanchi yuzyillik 20 – 30-yillarida jismoniy tarbiya tuzilmasi mudofaa sohasiga ixtisoslasha bordi⁴³. Biroq hamma ham sport sohasining mudofaa maqsadlarida foydalanilishiga hayrixohlik bildiravermagan⁴⁴. Jumladan, Surxondaryo viloyati oddiy aholisi oʻz hududidagi jismoniy tarbiya sovetining harbiy soha boshqaruvi ostida faoliyat yuritayotganligini ochiqdan-ochiq qoralagan⁴⁵. Bundan tashqari, Jismoniy tarbiya soveti tomonidan okrug va tumanlarda tashkil etilayotgan jismoniy tarbiya bayram-tadbiri dasturiga – birinchi navbatda harbiy amaliy mashqlar kompleksi qoʻshila boshlandi⁴⁶.

Maʼlumki, 1931 – 1934-yillarda SSSR miqyosida “Mehnat va mudofaaga tayyor” jismoniy tarbiya majmui joriy etilgan boʻlsa-da, 1921-yildanoq shunga oʻxshash komplekslar mavjud edi. Masalan, 1921 – 1922-yillarda “Namunali atlet” nishoni yaratilib, u uchun normativ sinovlari ishlab chiqilgan, 1925 – 1928-yillarda Qizil armiya komandir va askarlari uchun maxsus “Namunali fizkulturnik” nishoni yaratilib, unga ham tegishli normativ sinovlari ishlab chiqilgan edi⁴⁷. Bu norma bir qarashda sport sohasi tarkibiy qismidek koʻrinadi⁴⁸. Aslida esa, bu normalar harbiy soha rivojiga qaratilganligi oydinlashadi.

Xullas, sovet hokimiyati Oʻzbekiston SSR aholisiga yaqinlashish maqsadida, milliy sport turlaridan foydalandi. Ayniqsa, kurash sport turi qoidalarini oʻrgangan holda, aholi gavjum joylarda sayillar oʻtkazish va kurash musobaqalarini yaxshi tashkil etish boʻyicha tanlovlar oʻtkazdi. Hatto, tub yerli aholi milliy tiliga ham

³⁹ OʻzMA. R-86-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 5297-yigʻmajild, 58-varaq.

⁴⁰ OʻzMA. R-86-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 5285-yigʻmajild, 27-varaq.

⁴¹ OʻzMA. R-86-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 2591-yigʻmajild, 42-varaq.

⁴² OʻzMA. R-86-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 5967-yigʻmajild, 226-varaq.

⁴³ OʻzMA. R-86-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 6886-yigʻmajild, 24-varaq.

⁴⁴ OʻzMA. R-86-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 5298-yigʻmajild, 2-varaq.

⁴⁵ OʻzMA. R-86-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 5292-yigʻmajild, 3-varaq.

⁴⁶ OʻzMA. R-86-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 5300-yigʻmajild, 42-varaq.

⁴⁷ Попов В.Ф. Наследие бывшего СССР: миражи в массовой физической культуре и миф о комплексе ГТО // Вестник ТГУ (Ташкент). - 1997. - Выпуск №1. – С.65-70.

⁴⁸ OʻzMA. R-423-jamgʻarma, 1-roʻyxat, 18-yigʻmajild, 35-varaq.

katta e'tibor qarata boshladi. Tub yerli aholini sport bilan shug'ullantirgan holda sog'lom va baquvvat qilib tayyorlab, mamlakatning mehnat va mudofaa sohasida foydalanishni maqsad qildi. Biroq, mablag' bilan ta'minlashda rahbariyat sust faoliyat olib borishi oqibatida, hududlarda sport inshootlari va sport jihozlarga ko'pincha mablag' ajratilmadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Jismoniy tarbiya va sportning harbiy sharoitga moslashuvi (1939 – 1945-y.)”** deb nomlanib, unda jismoniy tarbiya tuzilmasi va komsomol (O'zbekiston LKSM) faoliyatining urush sharoitida harbiy askar zahirasini ta'minlashga yo'naltirilishi, O'zbekiston SSR va O'rta Osiyo respublikalari miqyosida sport musobaqalar o'tkazilishi hamda GTO normativlariga harbiy elementlarning kiritilishi masalalari tadqiq etilgan.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi natijasida Jismoniy tarbiya tashkilotlari Butunittifoq jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining 1941-yil iyul oyida “Urush sharoitida jismoniy tarbiya ishlarini qayta qurish bo'yicha” va “Jismoniy tarbiya tashkilotlari tomonidan – aholi orasida Umumiy harbiy ta'limni olib borishi bo'yicha” buyruqlari chiqarilgan. Bu buyruqlardan tashqari SSSR Davlat Mudofaa Qo'mitasi tomonidan 1941-yil sentyabr oyida “SSSR aholisi uchun umumiy harbiy ta'limni joriy qilish haqida”gi qarori ham chiqarilgan edi⁴⁹. Unda quyidagi jumlar keltirilgan edi: “Sovet Ittifoqining harbiy xizmatga yaroqli har bir aholisi qo'lga qurol olib, o'z Vatanini mudofaa etish uchun harbiy ishni o'rganishi lozim”.

Buning natijasida 1941-yil 1-oktyabrdan boshlab, 16 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan SSSR aholisi uchun 110 soatlik umumiy-majburiy harbiy ta'lim joriy qilingan⁵⁰. Unga binoan, respublikada ko'plab o'quv punktlari ochilib yuz minglab mehnatkashlar holda harbiy ta'lim olgan. Shuningdek, SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1942-yil 24-oktyabrdagi “To'liqsiz o'rta maktablarning 5-10-sinf o'quvchilarini boshlang'ich va harbiy chaqiriqqacha tayyorlash” va hatto “Boshlang'ich va to'liqsiz o'rta maktablarning 1-4-sinf o'quvchilarini harbiy-jismoniy tayyorlash” bo'yicha ham qarorlari chiqqan.

Shuni inobatga olish kerakki, sovet hokimiyati tomonidan aholi jabha ortidagi zavodlarda tinimsiz ishlashga hamda jabha maydonida esa sotsializm davlatini fashistlarning qo'qqisidan hujumidan himoya qilishga samarali tashviqot qilindi. Bu orqali O'zbekiston SSRning ko'plab jismoniy tarbiya va sport sohasi vakillari urush jabhasiga borgan va qahramonlik ko'rsatgan⁵¹. Misol uchun, 1943-yildagi Volxov jabhasida jang bo'lib o'tib, unda dushman askarlarga o'z ko'ragini tutib berib, jangchilarimizga yo'l ochib bergan To'ychi Eryigitov hamda bir necha granatani bog'lab nemis tankining tagiga o'zini tashlagan Komiljon Po'latov kabi xalq polvonlarini keltirish mumkin.

Bu va boshqa O'zbekiston SSR sportchilari ikkinchi jahon urushida jasorat ko'rsatib, SSSRning tegishli orden va medallari bilan taqdirlangan, ularning ayrimlari esa hatto Sovet Ittifoqi Qahramoni ham bo'lgan. Bundan tashqari, futbolchilardan M.Xo'jaev, A.Toporidze, G.Krivoshlikov, G.Ivanov; yengil

⁴⁹ Хамроев Н. Мактабда ҳарбий-ватанпарварлик тарбияси (Мактаб комсомол ташкилотлари таърибасидан). – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б.25.

⁵⁰ Ботиров Ҳ.А. Ўзбекистонда жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Ибн Сино, 1993. – Б.65.

⁵¹ Хўжаев Ф., Мелиев Х., Юнусова Д. Жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2010. – Б.140.

atletikachilardan U.Toirov, Kochnev, Kochetkov, Sexmisterenko; basketbolchilardan Yevdokimov, Morozov; bokschilardan L.Mesh, A.Borzenko; gimnastikachilardan V.Karpov, I.Boyarinov va boshqalar urushda botirlik va jasorat ko'rsatgan⁵². Ularning ichida yengil atletikachi U.Toirov front maydonida 9 joyidan o'q yegan bo'lishiga qaramay, jang tugaguncha kurashishni uddasidan chiqqan. Biroq shuni ham aytish kerakki, mazkur urush qahramonlari ichida tub yerli aholi vakillari ozchilikni tashkil qilgan.

Urush davrida Yoshlar ittifoqi qo'mitasi tomonidan, yoshlar orasida jabhaga safarbarlik bo'yicha targ'ibot olib borish ishlari jadal tarzda kechgan⁵³. 1940-yil 21-noyabrda VLKSMning "Butunittifoq pioner va o'quvchilarning 3-jismoniy-harbiy musobaqasi"ni o'tkazishga tayyorgarlik holati bo'yicha bayonotida, uni o'tkazishdan asosiy ikki maqsad – birinchisi pioner va o'quvchilarga zaruriy jismoniy-harbiy ko'nikma hamda mahoratlarni o'rgatish bo'lsa, ikkinchisi ular orasida GTO turli nishon toifalari normativini topshirishga yordam berish ekanligi ta'kidlangan⁵⁴.

O'zbekiston LKSM X syezdi (1941-yil) yoshlar orasida jismoniy tarbiya ishlarini yanada yaxshilash masalasiga bag'ishlangan edi⁵⁵. Syezdning mazkur kun tartibi bo'yicha olib borilgan harbiy-jismoniy tayyorgarliklar va ommaviy sport ishlari armiya uchun askarlar yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etgan⁵⁶. O'zbekiston LKSMning "Urush davrida LKSM (Yoshlar ittifoqi qo'mitasi) tashkilotining harbiy-jismoniy sohadagi ishlari" bo'yicha 1944-yilgi hisobotida, urush yillarida komsomolning amalga oshirgan ishlari asosan qizil armiya uchun zahira askarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligini mustahkamlashga qaratilganligi ma'lum qilingan⁵⁷.

SSSR miqyosida hamda O'rta Osiyo respublikalari bo'yicha ko'plab musobaqalar o'tkazilib turilgan⁵⁸. Jumladan, jismoniy tarbiya va sport bo'yicha Butunittifoq qo'mitasi tomonidan Tbilisi shahrida 1944-yil 2-avgustda basketbol bo'yicha bellashuv o'tkazilgan. O'zbekiston SSR hududidan mazkur musobaqada ishtirok etish uchun jami 15 nafar sportchi: 8 erkak va 7 ayol jo'natilishi belgilangan. SSSR jismoniy tarbiya va sport bo'yicha Butunittifoq Qo'mitasi tomonidan 1945-yilda ham musobaqalar o'tkazib borilgan. Xususan, shu yili suv polosi bo'yicha SSSR birinchiligi o'tkazilgan. Ahamiyatli jihati shuki, O'zbekiston SSR musobaqaning uchinchi o'rinini qo'lga kiritgan. Bu davrda O'rta Osiyo respublikalari spartakiadalari ham urush sharoitidan kelib chiqqan holda, o'tkazilib turilgan⁵⁹. Masalan, ulardan biri 1944-yil 17 – 24-sentyabrda Toshkentda o'tkazilgan bo'lib, yakunda O'zbekiston SSR birinchi, Qozog'iston SSR ikkinchi,

⁵² Ботиров Х.А. Ўзбекистонда жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Ибн Сино, 1993. – Б.64.

⁵³ O'zMA. R-94-jamg'arma, 5-ro'yxat, 4131-yig'majild, 23-varaq.

⁵⁴ O'zbekiston RPAA. 15-jamg'arma, 25-ro'yxat, 3969-yig'majild, 42, 49-varaqlar.

⁵⁵ Хамроев Н. Мактабда ҳарбий-ватанпарварлик тарбияси (Мактаб комсомол ташкилотлари тажрибасидан). – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б.22.

⁵⁶ Хўжаев Ф., Мелиев Х., Юнусова Д. Жисмоний тарбия тарихи. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2010. – Б.140.

⁵⁷ O'zbekiston RPAA. 58-jamg'arma, 15-ro'yxat, 1840-yig'majild, 2-varaq.

⁵⁸ O'zMA. R-2310-jamg'arma, 1-ro'yxat, 29-yig'majild, 1-varaq.

⁵⁹ O'zMA. R-2310-jamg'arma, 1-ro'yxat, 29-yig'majild, 81-varaq.

Qirg'iziston SSR uchinchi o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, Tojikiston va Turkmaniston SSR esa keyingi o'rinlarga loyiq ko'rilgan.

Urushdan avvalgi va urush yakunidagi sport inshootlar qurilishi bo'yicha farq sezilarli darajada bo'lgan. Bundan tashqari, qator shahar-tumanlarda birorta ham sport bazalar yo'q edi. Tabiiyki, urush yillari sport bazalarni qurish va jihozlash uchun yetarli mablag' ajratilmagan. Shu vaziyatdan kelib chiqib, 1944-yil qizil armiya tashkil etilganligiga 26 yil to'lishi munosabati bilan – "VLKSM yoshlar hashari (20-fevral – 20-mart) oyligi" tashkil qilingan⁶⁰. Buning natijasida O'zbekiston SSRda 2 ta futbol maydonchasi, 68 ta voleybol maydonchasi, 19 ta gimnastika shaharchasi, 8 ta basketbol maydonchasi yangi qurilgan bo'lsa, 4 ta futbol maydonchasi ta'mirlangan. Ushbu hashar oyligida 11387 nafar yoshlar mehnat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, fashistlar Germaniyasi ikkinchi jahon urushini boshlagach, SSSR hududida, shu qatorda O'zbekiston SSRda ham harbiy islohotlar kuchaytirildi. SSSR Mudofaa qo'mitasi tomonidan 16 dan 50 yoshgacha bo'lgan xizmat qilishga yaroqli aholi uchun 110 soatlik harbiy mashg'ulot joriy etildi. O'zbekiston SSR Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi bu bo'yicha ishlarga ko'proq jalb qilindi. Nafaqat sport, balki mamlakatdagi hamma tashkilotlar harbiy-mudofaa sohasini mustahkamlash harakatiga to'la-to'kis tortildi. O'zbekiston SSR Yoshlar ittifoqi qo'mitasi aholini jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga targ'ib qilish orqali jabha maydonlariga jo'natish ishlarida tashabbuskor bo'ldi.

XULOSA

Sovet hokimiyatining 1917 – 1945-yillarda Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRda yuritgan jismoniy tarbiya va sport siyosatini tadqiq qilish asosida quyidagi **xulosalar** ishlab chiqildi:

1. Turkiston o'lkasida qadimdan kurash, uloq va shaxmat sport o'yinlari mavjud edi. Turkiston ASSR tuzilib, yangi jismoniy tarbiya tuzilmasi ta'sis etilgach, sekin-asta boshqa zamonaviy sport turlari kirib keldi. Institutlarda ular (gimnastika, yengil atletika va suzish) bo'yicha tegishli o'quv mashg'ulotlari yo'lga qo'yildi. Jismoniy tarbiya tuzilmasi dastlab maorif sohasi, so'ngra harbiy soha (Umumiy harbiy ta'lim boshqarmasi) tarkibida faoliyat yuritdi. Mazkur tuzilmalar faoliyati – proletar sport g'oya va maqsadlariga muvofiq yuritilishi belgilab qo'yildi. Bu orqali bolsheviklar, Turkiston ASSRdagi boshqa sohalar kabi jismoniy tarbiya sohasiga ham sotsialistik mafkurani singdirishga urindi.

2. Turkiston hududida istiqlolchilik harakatlari shiddatli tus ola boshlagach, sovet hokimiyati o'z xavfsizligini ta'minlash uchun choralar ko'ra boshladi. Buni amalga oshira oluvchi kuch sifatida jismoniy tarbiya sohasi ko'rildi. Shu maqsadda keng miqyosda tashviqot o'tkazish uchun maxsus jurnal ("Militsionnaya armiya") ham tashkil qilindi. Asosiy obunachilari jismoniy tarbiya sohasi vakillari bo'lgan mazkur jurnalning nomidan ham, aslida jismoniy tarbiyaga emas, balki harbiy sohaga targ'ibot qilish ustuvor bo'lganligini anglash mumkin. RSFSR (1922-yil

⁶⁰ O'zbekiston RPAA. 15-jamg'arma, 25-ro'yxat, 4296-yig'majild, 13-varaq.

dekabrdan SSSR) tomonidan mamlakat armiyasini sport sohasiga yaqinlashtirishga oid maxsus hujjat ishlab chiqilgach, armiyaning harbiy bo‘linmalarida muntazam harbiy sport bellashuvlari o‘tkazib borildi. Umuman aytganda, bolsheviklar sog‘lom sportchidan – sog‘lom askarni yetishtirishni maqsad qildi.

3. O‘zbekiston SSR tuzilgach, Turkiston ASSR jismoniy tarbiya tizimidan katta farq qilmaydigan tuzilma (Jismoniy tarbiya Oliy kengshi) ta’ sis etildi. Sababi, yangi tashkil etilgan tuzilma Nizomiga ham Qizil Sport Internatsionalining g‘oyalariga zid bo‘lmagan faoliyatni yuritish bo‘yicha bandlar kiritildi. Bu davrda O‘zbekiston SSR, Qozog‘iston SSR va Tojikiston SSRning mazkur soha faoliyatida jiddiy kamchiliklar ko‘rina boshladi. Xususan, respublikalarda to‘garak faoliyati munosib olib borilmadi. Buni natijasida, sovet hokimiyati tomonidan SSSR va uning tarkibidagi respublikalarning sport tuzilmalari qayta tuzildi.

4. O‘zbekiston SSRning tub yerli aholisi sovet hokimiyati uchun “kerakli” hisoblanardi. Chunki, sovet hokimiyati ulardan mamlakat iqtisodiyotini va xavfsizligini ta’minlashda foydalanardi. Ularga “g‘amxo‘rlik qilish” maqsadida birmuncha islohotlar qilindi. Jumladan, milliy sport turini keng ommaga yoya boshladi. Ayniqsa, milliy kurash sport turini rivojlantirishga astoydil harakat qilindi. Hatto bu sport turi bo‘yicha ilmiy tadqiqot qilinishiga hayrixohlik bildirildi. Shu bilan birga, o‘zbek tilida ko‘plab sport adabiyotlari nashr etildi. Biroq, boshqa jabhalarda, rahbariyat ishlari oqsadi. Xususan, Jismoniy tarbiya Oliy kengashi faoliyatining dastlabki yili (1925) uchun ajratilgan byudjet (6000 rubl) juda kamligidan, kengash tomonidan O‘zSSR MIQ Prezidiumiga norozilik xati yuborildi. Shuningdek, sport inshooti va maydonlarini qurish ishlari qoniqarli olib borilmadi.

5. Sovet hokimiyati O‘zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport tuzilmasi faoliyatini harbiy sohaga yo‘naltira boshladi. Shu maqsadda turli sport musobaqalariga harbiy ko‘rinishdagi sport o‘yinlari (harbiycha yurish, granata uloqtirish, o‘q otish va boshqalar) kiritildi. Bu ishlar tepasida Jismoniy tarbiya Oliy Soveti bo‘lishi belgilandi. Sportchilarning harbiy mahoratini oshirish maqsadida GTO normativlari tuzib chiqildi. Shuningdek, bu vaqtda ko‘plab O‘zbekiston SSR va O‘rta Osiyo respublikalari miqyosidagi musobaqalar o‘tkazildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad sportchilarning kurashuvchanlik va yetakchilik qobiliyatini oshirish orqali abjir askar qilib yetishtirish edi.

6. Ikkinchi jahon urushi boshlangach (1939-yil sentyabr), ko‘p davlatlar o‘z mudofaa tizimiga e’tibor qarata boshladi. SSSRga Germaniya hujum qilgach (1941-yil iyun), urush sharoitida SSSR Davlat Mudofaa qo‘mitasi tomonidan 16 – 50 yosh atrofidagi erkaklar 110 soatlik harbiy ta’lim kursida o‘qitila boshlandi hamda bu vazifa Jismoniy tarbiya va sport Qo‘mitasiga yuklatildi. SSSR va shu qatorda O‘zbekiston SSRning barcha soha faoliyati jabha manfaatlari uchun ixtisoslashtirildi. O‘zbekiston LKSM faoliyati ham bundan mustasno emas. Sovet hokimiyati komsomol zimmasiga, tub yerli aholi jismoniy qobiliyatini oshirish uchun, ularni harbiy-jismoniy kurs mashg‘ulotlariga jalb qilish hamda ushbu tayyorgarliklardan o‘tganlarni askar sifatida jabhatga safarbar qilish vazifalarini yukladi. Ko‘plab sport jamiyatlari aholini safarbarlikaa tayyorlash ishlarini olib

bordi.

7. Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) davrida ham sport musobaqalari O'zbekiston SSRda o'tkazib turildi. Nafaqat respublika ichida, shu bilan birga O'rta Osiyo va SSSR miqyosida ham bu kabi musobaqalarni o'tkazish davom ettirildi. Mintaqa miqyosida o'tkazilgan bunday musobaqalarda O'zbekiston SSR sportchilari birinchi o'rinni qo'lga kiritganligini ta'kidlash joiz. SSSR miqyosidagi ishtiroki esa har doim ham qoniqarli bo'lmadi. Musobaqalarda ommaviy sport bilan birga O'zbekiston SSRda azaldan mavjud milliy sport o'yinlari ham joy oldi. Ommaviy sportdan og'ir atletika va boksni, milliy sport o'yinlaridan kurashni rivojlantirish bo'yicha katta islohotlar qilina boshlandi. Sababi, kurash o'zbek xalqi uchun milliy g'urur timsoli ekanligini yaxshi bilgan sovet rahbariyati uni rivojlantirish orqali tub yerli aholiga yaqinlashishni va sportda toblangan sog'lom aholidan o'zining harbiy manfaati yo'lida foydalanishni maqsad qildi.

8. SSSR urush harakatlariga qo'shilgach, aslida mohir sportchilarni tayyorlash bilan shug'ullanadigan GTO tuzilmasi mudofaa manfaatlariga xizmat qila boshlaydi. Ya'ni, Germaniya fashizmiga qarshi urush yillarida (1941-1945) GTO normativlari orasiga harbiy ko'rinishdagi sinovlar kiritila boshlandi. Bularga misol qilib, o'q otish bo'yicha maxsus sinov normativlarini keltirish mumkin. Shuningdek, sport bilan shug'ullanuvchilarga munosib shart-sharoitlar yaratish maqsadida, bu davrda qator sport muassasalari, maydonlari qurildi, sport jihozlari yaratildi. Biroq shu o'rinda aytish kerakki, O'zbekiston SSRning chekkaroq hududlarida sport anjomlari va inshootlari yetishmovchiligi namoyon bo'ldi.

Sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSR – O'zbekiston SSRning jismoniy tarbiya va sport sohasida yuritgan siyosatini ilmiy o'rganish quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ishlab chiqishga asos bo'ldi:

1. Sovet davrida Turkiston ASSR jismoniy tarbiya va sport sohasida olib borilgan siyosatni yanada chuqurroq tadqiq etishga bag'ishlangan ilmiy va amaliy anjumanlarni muntazam tashkil qilib borish.

2. Sovet davri yillarida O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha yuritgan siyosatiga oid badiiy va hujjatli filmlar va ko'rsatuvlar yaratishni ko'paytirish.

3. O'zbekiston SSR jismoniy tarbiya va sport sohasida 1945 – 1991-yillarda sovet hokimiyatining yuritgan siyosatini hamda O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qayta tiklagach, mustaqillik davridagi jismoniy tarbiya va sport sohasini haqqoniy ravishda yoritib beruvchi ilmiy tadqiqotlarni ko'paytirish kerak.

**SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01 AT THE INSTITUTE OF HISTORY,
UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES**

THE INSTITUTE OF HISTORY

KAZBEK BOZORBOY ULI NAGASHBOEV

**THE POLICY OF SOVIET GOVERNMENT IN THE FIELD OF
PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN THE TURKESTAN ASSR –
UZBEK SSR (1917-1945)**

07.00.01 – History of Uzbekistan

**Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in historical sciences
ABSTRACT**

Tashkent, 2026

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered by the Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2025.4.PhD/Tar1803.

The dissertation has been prepared in the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

The abstract of the dissertation has been posted in three languages (Uzbek, English and Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fati.uz) and on the Information and educational portal "ZiyoNET" (www.ziynet.uz).

Scientific supervisor:

Kahramon Kenjaevich Rajabov
Doctor of historical Sciences, Professor

Official opponents:

Bakhtiyor Ergashevich Ergashev
Doctor of historical Sciences, Professor

Muzrobjon Gulomovich Abdullaev
Doctor of historical Sciences, Professor

Leading organization:

**National pedagogical university of Uzbekistan
named after Nizami**

The defense of dissertation will be held on September " 18 ", 2026, at 14:00 at the meeting of the Scientific Council number DSc.05/2025.27.12.Tar.05.01 on awarding scientific degrees at the Institute of History of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. (Address: 100060, Tashkent city, Shahrissabz Street, 5, The Institute of History, 8th floor, Meeting hall. Tel.: (+99871) 233-54-70; Fax: (+99871) 233-39-91, E-mail: info@fati.uz).

The dissertation is available for consultation in the Fundamental Library of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (Registered under №____) (Address: 100170, Tashkent, Ziyolilar Street, 13). Tel.: (+99871) 262-74-58; fax: (+99871) 262-34-41).

The abstract of the dissertation was distributed on September " 3 ", 2026.
(Registry protocol №12 dated September " 2 ", 2026).



Azamat Ziyo
Chairman of the Scientific Council on
awarding scientific degrees, Doctor of
Historical Sciences, Academic

Kh.S. Jumanazarov
Scientific Secretary of the Scientific
Council on awarding scientific
degrees, Doctor of Historical
Sciences, (DSc)

F.S. Boboyev
Chairman of the Scientific Seminar
under the Scientific Council on
awarding scientific degrees, Doctor of
Historical Sciences, (DSc)

INTRODUCTION (PhD dissertation abstract)

The relevance and necessity of the dissertation topic. In the context of contemporary global integration, social processes are accelerating at an unprecedented pace, with popular culture and digital information flows exerting a direct influence on societal values. Specifically, the detachment of individuals from active physical engagement due to the proliferation of emerging digital technologies has become a critical concern within health culture. Consequently, this phenomenon underscores the growing significance of physical education and sports, highlighting the urgent necessity for implementing a series of effective reforms within this sector.

In leading global higher education institutions and scientific research centers, significant attention is dedicated to examining the physical anthropology of nations, along with their corresponding cultural paradigms and sports history. Specifically, historical literature elucidates how the rise of the Soviet regime led to the integration of revolutionary political agendas into the sphere of physical culture and sports. This process resulted in a prohibition on participation in international Olympic competitions, the militarization of the physical education and sports systems, and the subordination of sports administration to the Communist Party. Furthermore, it details the ideological confrontation between the Red Sport International, which propagated communist dogma, and the Lucerne Sport International, which championed democratic principles. However, critical issues remain highly relevant regarding the methods employed by the Soviet authorities within the Turkestan ASSR and the Uzbek SSR to mobilize the native population into physical culture and sports, as well as the underlying political and ideological objectives driving these initiatives. These objectives prominently included the policy of forging a physically robust, high-endurance working class and the implementation of standardized physical fitness testing norms, which were subsequently refashioned into military training components during World War II. Consequently, investigating the history of the physical culture and sports sector within the Turkestan ASSR and the Uzbek SSR underscores the profound necessity of this research.

The reforms currently underway to advance historical science in New Uzbekistan necessitate a comprehensive investigation into the authentic history of Uzbekistan from antiquity to the contemporary era, grounded in scientific approaches that align with national interests. Indeed, as the axiom states, “Where history gains a voice and its lessons are heeded, knowledge and enlightenment, progress and justice will inevitably prevail”⁶¹. In this regard, it is of paramount importance to objectively elucidate how the processes within the physical culture and sports sector of the Turkestan ASSR and the Uzbek SSR exerted a profound influence on educating the younger generation, enhancing public health, and preserving the human gene pool. Consequently, these factors explain why the

⁶¹ O‘zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning 2026-yil 17-mart kuni Islom sivilizatsiyalari markazining rasmiy ochilish tadbiridagi nutqi / <https://president.uz/oz/lists/view/9018>

Soviet regime, as a distinctive method of governance, perpetually maintained strict oversight over this domain.

In this context, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan № PF-269, dated December 21, 2022, “On Measures to Implement Administrative Reforms of New Uzbekistan”, was adopted. In accordance with the aforementioned framework, the Ministry of Youth Policy and Sports of the Republic of Uzbekistan was established through the reorganization of the Ministry of Sports Development of the Republic of Uzbekistan. This transformation was institutionalized by the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan, dated April 7, 2023, titled “On measures for the effective organization of state governance in the spheres of youth policy and sports” within the context of administrative reforms. Pursuant to Decree № PF-18, issued on January 20, 2024, “On measures to improve the system of state administration in the spheres of youth policy and sports”, the Ministry of Sports was designated to be established on the basis of the Ministry of Youth Policy and Sports. This dissertation research contributes significantly to the implementation of the objectives delineated in this and other regulatory frameworks aimed at the systematic enhancement of physical culture and sports activities.

Correspondence of the research with the priority areas of the republican science and technology development. This dissertation was completed in accordance with the priority area of the state science and technology development program I. “Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state”.

The level of study of the problem. Analysis of the scholarly literature and research conducted within the framework of the studied topic reveals that it is appropriate to classify them into three main directions based on content and chronological criteria: 1) Scientific dissertations and scholarly literature published during the soviet-era; 2) Work carried out during the period of independence; 3) Scientific works published abroad.

The first category comprises the scientific dissertations⁶² and also

⁶² Шоломицкий Ю.С. Физическая культура и спорт в Узбекистане за 40 лет советской власти (1917-1957 гг.): Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Ташкент, 1960. – 19 стр.; The same author. Физическая культура и спорт в Советской Средней Азии и сопредельных странах Востока: Автореф. дисс. докт. пед. наук. – Ташкент, 1972. – 38 стр.; Суник А.Б. Развитие физической культуры в общеобразовательных школах Узбекистана за 50 лет: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Львов. 1963. – 17 стр.; Тен К.П. Физическое воспитание студентов высших учебных заведений Узбекистана и пути его улучшения: Автореф. дисс...канд. пед. наук. – Ташкент, 1969. – 19 стр.; Мамаджанов А.М. Деятельность коммунистической партии Узбекистана по организации оборонно-массовой работы среди трудящихся республики накануне и в годы великой отечественной войны (1939-1945 гг.): Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1970. – 27 стр.; Исмаилов Р.И. Руководящая роль Коммунистической партии Узбекистана в развитии физкультурного движения в республике (1917-1940гг.): Дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 1971. – 275 стр.; Абдумаликов Р. Пути внедрения физического воспитания и спорта в повседневную жизнь учащейся и рабочей молодежи (по материалам Самаркандской области Узбекской ССР). – Ташкент, 1975. – 29 стр.; Исхаков М.Ф. Дружба народов СССР в развитии физической культуры и спорта в Узбекистане.: Автореф. дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 1976. – 72 бет; Мухитдинов М. Ўзбекистонда шахмат маданиятининг тарихи.: Тарих фанлари номзоди диссертацияси. – Тошкент, 1978. – 268 стр.; Казиева Р.А. Из истории развития физической культуры и спорта среди женщин Узбекистана в период строительства социалистического общества (1917-1958 гг.): Дис. канд. ист. наук. – Ташкент, 1980. – 173 стр.; Штерн В.А. Спортивные игры в Узбекистане, их роль и значение в нравственном

